

“TASDIQLAYMAN”



O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim,
fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Bilim va malakalarni
baholash agentligi direktori

M.M.Karimov

2023-yil “14” - dekabr

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH AGENTLIGI TOMONIDAN O‘TKAZILADIGAN TEST SINOVLARINI YORITISH MAQSADIDA TASHRIF BUYURADIGAN OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VAKILLARI UCHUN **Y O‘ R I Q N O M A**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi (keyingi o‘rinlarda – Bilimni baholash agentligi) tomonidan o‘tkaziladigan test sinovlari haqida jamoatchilikka tezkor va aniq axborot berib borishda matnli, audio, foto va video shaklida ma’lumotlar olish bevosita test sinovi o‘tkaziladigan joylarda amalga oshiriladi. Bunda ommaviy axborot vositalari (keyingi o‘rinlarda – OAV) vakillari quyidagi tartibga amal qiladi:

1. Jarayonni yoritish uchun bitta tahririyat (telekanal, radiokanal, gazeta, jurnal yoki internet nashri)dan tashrif buyurgan OAV vakillari soni 2 nafardan oshmasligi zarur.

2. OAV vakillari test sinovi o‘tkazilayotgan hududga kirayotganda ish joyidan berilgan guvohnomasini shaxsan ko‘rsatadi.

OAV vakillarining ish joyidan berilgan guvohnomasini taqdim etmasligi uning test sinovi o‘tkazilayotgan hududga kirishini rad etishga asos bo‘ladi.

3. Test sinovi o‘tkaziladigan hududga kirgan OAV vakillari bino rahbariga o‘zini tanishtiradi va tashrifining maqsadi (audio, matn, foto yoki videolavha tayyorlash) haqida ma’lumot beradi. Bunda bino rahbari yoki test sinoviga mas’ul xodimlardan biri tomonidan OAV vakillariga amaliy yordam ko‘rsatiladi. OAV vakillarining binodagi faoliyati mas’ul xodim nazoratida amalga oshiriladi.

4. OAV vakillarining test sinovi jarayoniga xalaqit beradigan darajada harakat qilishi, xususan, test sinovi jarayonida abituriyentning oldiga borishi, qatorlar orasida yurishi, test topshiriqlari kitobini yaqindan suratga olishi qat’iyan taqiqlanadi.

5. Media materiallar tayyorlash jarayoniga, agar test sinovi uchun ajratilgan vaqt to‘liq yakunlanmagan bo‘lsa, abituriyent yoki guruh nazoratchisining jalb etilishi mumkin emas.

6. OAV vakillari bilan suhbatlashish yoki intervyu berishni istamagan shaxs (guruh nazoratchisi, abituriyent va boshqalar)ga bosim o‘tkazish qat’iyan man etiladi.

Bunday hollarda jarayon haqida to‘liq va haqqoniy ma’lumot olish masalasi bino rahbari yoki Bilimni baholash agentligi vakili yordamida hal etiladi.

7. Test sinovini topshirib, binodan chiqqan abituriyent va boshqa shaxslarning suhbat, intervyyuga jalb etilishi ixtiyoriy bo‘lib, mas’ul shaxslardan ruxsat so‘rash talab etilmaydi.

Jarayon davomida OAV vakillarining mazkur Yo‘riqnomada belgilangan tartibga rioxva qilmasligi uni hududdan chiqarib yuborish yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishga sabab bo‘ladi.